



SUV OMBORLARI TASNIFI

Axmedova Farzonabegim Saydullo qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590508>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 28- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Bef tasnifi, oqimning boshqarilishi, joylashuv tasnifi, to'insuv davri, toshqin davri, o'zan suv ombori, to'ldirilgan suv ombori, dimlanish, normal dimlanish, mavsumlararo oqim, gidrologik rejim, suv muvozanati, Harorat rejimi

ANNOTATSIYA

Maqolada geografik jihatdan joylashgan mavjud suv ta'minoti xisoblangan suv omborlarining tuzilishi, ularning tarkibiy qismlari hamda suv omborlari tasnifi haqida so'z yuritilgan bo'lib, daryo oqimini boshqarish tasnisi, suv omborlarining joylashishiga ko'rta tasniflanishi, bef tasniflanish va boshqalar yuzasidan fikr yuritilgan.

Barchamizga ma'lumki, qishloq xo'jaligidan tortib umummilliy harakatlarda ham asos tayanch bo'lib xizmat qiladigan ona tabiatimiz inson zoti munavvarlari paydo bo'lgandan buyon bizni qo'llab quvvatlaydi. Suv esa manashu ona tabiatning bir qismidir.

Bugungi kunda mamlakatimizning ma'lum bir geografik hududlarida joylashgan suv resurslari – jumladan: suv omborlari, daryolar, ko'llar va boshqalar hayotning eng asosiy omillaridan biri xisoblanmish suv zahiralari bo'lib xisoblanadi. „Har qanday mamalakatda suv omborlari va suv zahiralari davlatning qurguqchilikka moyil bo'lgan hududlarida joylashgan ekin va bo'z yerlarning qishloq xo'jaligi agro texnikasi uchun asos-tayanch bo'lib xizmat qiladigan sug'orish tizimlariga asosiy vosita xisoblanadi”. [1] Mavjud suv omborlari

zahirasiga muvofiq hamda vaifaviy jihatdan tashkil topgan o'rni va bazaviy miqdoridan kelib chiqib daryolar oqimini tartibga solish bilan birgalikda atrof muhit va dalalar, qolaversa, qishloq va shaharlar aholisini suv bosishi kabi turli turdagi balo va ofatlardan himoya qilish vazifasini ham o'taydi.

Suv omborlarining yaratilishida asosiy va meliorativ maqsad tinch aholi va ona tabiat suv resurslariga muhtoj bo'lgan paytda ya'ni qurg'uqchilik paytida asosiy manbaa bo'lib xizmat qilishi bilan o'ziga xos xususiyatlarni kasb etadi.

Asosiy maqsad shuki, suv zahiralarini saqlash, biroq bu bilan birgalikda suvning to'planib turishidan foydalangan holda ijtimoiy kommunikativlik va emotsianallikni saqlab qolgan holda suv omborlarida baliqchilik ham yo'lga qo'yilgan. Bundan maqsad suv to'planmasi



uzoq muddat saqlanib turgabnligi sababli eroziyaga uchrashi mumkin ekanligini yodda tutgan holda ham suvni tabiiy ravishda tozalab turish, qolaversa, daromad ki'rish masadida ham suv omborlari tashkil etilsa ajab emas, nazarimda.

„Suv omborlarining bunyod etilishidan maqsadlardan yana biri bilan tanishamiz – demak, baliqchilikni rivojlantirish, suv resurslarini eroziyaga uchrashini oldini olish va iqtisodiy foyda olish maqsadida ham suv omborlarining tashkil etilishi mumkin ekanligi haqida ham to'xtalib o'tdik, biroq, asosiy maqsad suv zahirasini uzoq muddat saqlab turish va kerakli payda aholi va ona tabiat ehtiyojlarini qondirish deya tasniflab o'tdik, endi esa tana bir tasniflashga arzigulik masala bilan atanishib o'tsak, mahalliy aholining yoz va qish mavsumlarida dam olishi ko'ngil yozishi uchun shart-sharoit yaratib berilgan suv omborlarining ham mavjud ekanligi ham ahamiyatlidir”. [2] Yuqorida sanalib kelinyotganlar suv omboridan foydalanishning tasniflanishi deya qabul qilish menimcha, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugungi kunda suv omborlarining tizimli tajhlil etilishi, qolaversa ularning girbaylana yoki yarim aylana to'g'onlar asosida bunyod etilioshidan tortib, suv omborining bunyod etilishidan oldin uning nazariy qismini loyihalash, suv saqlanishiga munosib obyektning to'g'ri tanlanishi suvning suv ombori vodiysiga quyilish bosqichlari ham inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir.

Suv omborining asosiy elementlari ham mavjud bo'lib, ular ham zonalarga bo'linadi. Bunda suv ombori va uning asosiy rejimining elementlari quyidagicha:

1. Dimlanishga qadar suv sathi;
2. Dimlanishga qadar toshqin va suv sathi;

3. Normal dimlangan sath;
4. Dimlanish sharoitida toshqin suv sathi.

Suv omborlari faqatgina suvni qabul qiluvchi obyekt vazifasini bajaribgina qolmasdan suv tashuvchi va suv chiqaruvchi inshootlar turlarini ham o'zida jamlab ularning qo'llanish texnikasining tajribada muvofiqlashtirilgan variantlarini ham amalda qo'llovchi geografik obyekt xisoblanadi.

Suv omborlarining yuqori bef tasnifi ham mavjud bo'lib bunda suv omborlarining yangidan bunyod bo'lishidagi texnik ishlar yetakchi asos bo'lib xizmat qiladi.

Suv omborlarining tasniflari:

1. Daryo oqimini boshqarishga ko'ra tasniflash va uning o'ziga xosligi;
2. Suv omborlarining joylashuv o'rniga ko'ra tasniflash va uning ahamiyati;
3. Suv omborlarining bef tasnifi.

Daryo oqimini boshqarishga ko'ra tasniflash va uning o'ziga xos xususiyatlaridan „Daryo va soylar oqimini tartibga solish sharoitiga bog'liq holda suv omborlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

a) daryolar oqimini kun yoki haftalar davomida tartibga solib turadigan suv omborlari. Bunday suv omborlarini qurishdan asosiy maqsad sanoat korxonalari, aholi punktlari, chorvachilik fermerlarining suvga bo'lgan ehtiyojini doimiy ta'minlashga erishishdir. Ularda suv to'plash dam olish kunlari yoki tungi soatlarda amalga oshiriladi. Bu turdagi suv omborlarini ko'pincha suvi oz va bir meyorda oqadigan daryolar, buloqlar va soylar, buloqlar hisobiga to'diriladi” [3] deyish mumkin. Yana bir turdagi tasniflash ham borki unda daryo o'zani va oqimlarini mavsumiy tarzda tartibga solish va boshqarishga mo'ljallab bunyod etiladigan



suv omborlari. Ushbu suv omborlarining asosiy vazifalari quyidagilardan:

- To'lsuv davrlarida suvni to'plash;
- Toshqin davrlarida suvni to'plash;
- Yuqoridagilardan foydalanib daryolarning suvi kamaygan payda foydalanishdir.

„Yana bir ayricha tasnif ham mavjudki unda Daryo o'zanlari oqimini yillar aro davriy tarzda tartibga solishdir. Bunday suv omborlarining vazifalaridan biri shundaki yo'g'ingarchilik mo'l bo'lgan yillarda suvning ma'lum bir qismini Zahira sifatida saqlab qolish, chunki yog'ingarchilikning mo'lligi sababli sug'oriladigan yoki aholi ehtiyojlari uchun sarflanadigan suvlar tejab qolinadi, shuning hisobiga ser yomg'irli yillarda suvlarning jamg'arilishinatisida qurg'oqchilik yillarida zahiradan aholi va ona tabiatga yetkazib berishdir”[4] Bugungi kunda manashunday suv omborlari ham mavjud bo'lib, namunaviy shaklda Norin daryosi tarkibida bunyod etilgan Taxtag'ul suv ombori, o'ziga xos geografik hududda bunyod etilgan Vaxsh daryosi tarkibiy qismlariga kiruvchi Norak suv omborlarining yuqoridagi taqlidda bunyod etilganligini aytish mumkin.

Joylashish o'rniga bog'liq holda tasniflash.

„Suv omborlari joylashish o'rniga ko'ra ikki turga bo'linadi:

- O'zan suv omborlari;
- To'ldirilgan suv omborlari.

O'zan suv omborlari daryo yoki soylar vodiylarida baland to'g'onlar qurib, suv oqimini bevosita to'sish yo'li bilan barpo etiladi. Bunday suv omborlari ko'pchilik hollarda ensiz va cho'ziq shaklda bo'ladi. Ularning to'g'onoldi qismi eng

chuqur bo'lib, undan daryo o'zani bo'yicha yuqorilashgan sari chuqurlik kamayib boradi. Mazkur turdagi suv omborlarini qurish iqtisodiy nuqtai-nazardan ancha tejamlidir”.[5]

Bundan tashqari suv omborlari haqida so'z ketganda quyidagilarga ham qat'iy amal qilish lozim:

- Suv omborlarining joylashishiga qarab ularni geografik jihatdan baholash;
- Suv omborlarining namunaviy shakllari va ularning ahamiyatlilik darajasi;
- Suv omborlarining tasniflanishi;
- Suv omborlarida doimiy ravishda saqlanayotgan suvning muvozanati;
- To'ldirilmagan suv omborining o'ziga xos xususiyatlari;
- Daryo oqimi tartyibga solishning ahamiyati;
- Suv omborining gidrologik rejimini tadrijiy hisoblashning o'ziga xos nazariyalari bilan tanishish.

Xulosa. Suv omborlarining tasnifi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirish va turli turdago geografik nomenklaturalarga bog'liq holda tartibga solingan, qolaversa boshqaruv tizimlarining uzviyligi shakllantirilgan suv omborlarining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi ahamiyatlidir. Mavsumiy va geografik hududiga qarab turli maqsadlar yo'lida bunyod etilgan suv omborlarining shakllanishi bu kishilik jamiyati uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy qilib olganda, umummilliy zahira sifatida suv omborlarining mavjud ekanligi kishilik jamiyatining kelajakda suv resurslariga hech qanday muhtoj sezmasdan istiqomat qilishlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. A.R. Rasulov, F.X.Hikmatov, D.P. Aytboev „Gidrologiya asoslari” Toshkent. „Universitet” 2003.
2. Rasulov A.R, Hikmatov, F, X, „Suv eroziyasi, daryo oziqlari va ularni miqdoriy baholash” Toshkent „Universitet. 1988.
3. P.Baratov, N.B. Sultonova „Umumiy yer bilimi” Toshkent – 2018.
4. S.Karimov, A.Akbarov, U, jonqobilov „Gidrologiya, gidrometriya va oqim hajmini rostlash” Toshkent – 2004.